

## "Ma'muriy binodan foydalanish direksiyasi" unitar korxonasi

---



Suvanov Zufar Abdurasilovich

Qabul kunlari: Payshanba soat 09:00-14:00

Toshkent sh. 100000 Mustaqillik shox ko'chasi 68a

(0 371) 268?27?13

(0 371) 268?27?13

[mbfdireksiyasi@uzavtoyul.uz](mailto:mbfdireksiyasi@uzavtoyul.uz)

---

### "Ma'muriy binodan foydalanish direksiyasi" unitar korxonasining funksional vazifalari

---

- ma'muriy binodan belgilangan me'yorlarga muvofiq foydalanish xizmatini samarali tashkil etish, jumladan yong'in xavfsizligi, sanitariya qoidalariga, shaharsozlik normalariga rioya qilish;
- Muassis tizimidagi korxonalar va tashkilotlar bilan doimiy ishlaydigan selektor, ichki va tashqi aloqa tizimlarini uzluksiz ishlashini tashkil etish va sifatli ishlashini ta'minlash;
- avtomobil yo'llari holati to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, uzatish va doimiy monitoringini olib borish;
- ma'muriy binodan foydalanish va ta'mirlash bilan bog'liq masalalarni kompleks hal etish;
- tizimda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish;
- Muassis tizimidagi korxonalar va tashkilotlar bilan sifatli aloqa xizmatini o'zaro shartnomalar asosida ko'rsatish;
- O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tarixini aks ettiruvchi hujjatlar va fotosuratlar ro'yxatini olib borish, yo'l xo'jaligi tarixiga oid tarixiy hujjatlarni to'plash, jamlash;
- Muassis bilan kelishilgan holda Muassis tarkibidagi, hamda tarkibida bo'lmagan boshqa korxonalar va tashkilotlarga ma'muriy binodan o'rnatilgan tartibda shartnoma asosida ijaraga joy berish;
- ishlab chiqarishni texnikaviy va ashyoviy ta'minoti, aniq ish bajaruvchini tanlash, ish xaqi to'lashni o'rnatilgan tartib va usullarni qo'llash, ishchi xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash va o'z-o'zini boshqarish masalalarini mustaqil hal qilish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini bajarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

- Korxonada ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mehnat jamoalarining ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish;
- foyda olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish.

[Nizomni yuklab olish \(pdf, 268 kb\)](#)